

XALQ O'YINLARI ORQALI BOLALARDA JISMONIY BARKAMOLLIKNI
TARBIYALASH

Eraliyeva Zamira Rasuljonovna

Qo'qon universiteti dotsent v.b zamirahoneraliyeva22@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola, milliy xalq o'yinlari va milliy urf odatlarimizni o'zida mujassamlangan O'zbek xalq o'yinlari, ularning jamiyatdagi va yosh avlodni tarbiyalashda tutgan ahamiyati haqida so'z boradi. Xalq o'yinlari orqali maktabgacha ta'lim yoshdagi tarbiyalanuvchilariga samarali o'rgatish, bolalarda milliy o'yinlar orqali milliylikimizni chuqurroq anglatish ko'zda tutilgan. O'zbek milliy harakatli o'yinlari o'tmishda ajdodlarimizning kundalik turmush – tarzi nimalardan iborat ekanligini anglashdan iborat. Xalq o'yinlari orqali bolalarda jismoniy barkamollikni tarbiyalash va maktabgacha ta'lim tarbiyada va zamonaviy jismoniy tarbiyani madaniyatini shakllantirishda ulkan ahamiyatga egadir.

Kalit so'zlar: vatanga muhabbat, xalq o'yinlari, milliy qadriyatlar, YUNISEF, infratuzilma, pedagog, koordinatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение узбекских народных игр, в которых отражаются национальные традиции и обычаи, а также их роль в обществе и воспитании подрастающего поколения. Цель исследования - показать эффективность использования народных игр в работе с детьми дошкольного возраста, способствовать формированию у них осознания национальной идентичности через традиционные формы активности. Узбекские народные подвижные игры отражают повседневный образ жизни и культуру наших предков. Посредством народных игр воспитывается физическая культура, координация движений и физическое совершенство у детей дошкольного возраста, что имеет большое значение в системе современного физического воспитания и образования.

Ключевые слова: любовь к Родине, народные игры, национальные ценности, ЮНИСЕФ, инфраструктура, педагог, координация.

Abstract: This article discusses the significance of Uzbek folk games, which embody national traditions and customs, and their role in society and the upbringing of the younger generation. The focus is on the effective use of folk games in teaching preschool children and fostering an awareness of national identity through traditional play. Uzbek national movement-based games reflect the daily lifestyle and cultural heritage of our ancestors. Through folk games, preschool children develop physical fitness, coordination, and cultural values, which play a crucial role in shaping modern physical education and cultural development.

Keywords: patriotism, folk games, national values, UNICEF, infrastructure, pedagogy, coordination.

KIRISH

“Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo‘lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta‘lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz- ijtimoiy ahvolidan qat‘i nazar, bog‘cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta‘lim yo‘nalishi bilan to‘liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat”.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli qarori ushbu sohada tub o‘zgarishlarning amalga oshishiga asos bo‘ladi⁶. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda 2017-2021 yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta‘minlashda bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta‘lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta‘lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta‘lim muassasalarining moddiy-jismoniy tarbiya metodikasi maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi⁷.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, shuni ta‘kidlash mumkinki, maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarning yetuk shaxs sifatida rivojlanishi, hayotiy bilim va ko‘nikmalarining shakllanishida xalq o‘yinlar alohida o‘rin egallaydi. Insoniyatning har tomonlama rivojlanishining umumiy tizimida bola tarbiyasi muhim o‘rin tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ketma-ket rivojlanib, jismoniy tarbiya bilan katta zavq bilan shug‘ullanadilar. Ular, ayniqsa, xalq o‘yinlariga qiziqishi kattadir⁸.

Adabiyotlar tahlili.

Milliy o‘yinlar tarixini o‘rganishda Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarining o‘rni beqiyos. Asarda xalq o‘yinlarining bir yuz ellikdan ziyod turi tilga olingan. Jumladan, “qorang‘uni” (qorong‘ida qo‘rg‘on olish), “bandol” (asir olish), “o‘tish-o‘tish” (davra o‘yini), “chavgon” (to‘p o‘yini), “o‘t bandal” (tayoq o‘yini), qilichbozlik, nayzadorlik va boshqa o‘yinlar haqida ham ma‘lumot beriladi. Lug‘atda izoh berilgan o‘yinlarning bir nechtasi hozirgi kunda ham bolalar uchun qiziqarli mashg‘ulot sanaladi⁹.

“Alpomish” dostoni xalq o‘yinlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Unda kurash, ot, poyga, uloq, nayza sanchish, kamondan o‘q otish, qilichbozlik, merganlik kabi o‘yinlar negizida mardlik, jangovarlik, oriyat, matonat, ma‘naviy va jismoniy komillik kabi fazilatlar o‘z ifodasini topgan¹⁰.

⁶O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 8-may 2019-yildagi PQ-4312-son qarori <https://lex.uzdocs/-4327235?ONDATE=10.05.2019>

⁷ <https://fayllar.org/bolalar-jismoniy-tarbiyasi.html>

⁸ Shavkat Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Yangi O‘zbekistonning istedadli yoshlari”; ilmiy ishlar to‘plami O‘zbekiston Respublikasi Joliy va o‘rta talim vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi istedadli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash Ulug‘bek jamg‘armaasi. Tuzuvchi va nashr uchun masullar O Salimov, A Toshqulov, M Bektemirov, Q uronboev, N Xalilov- ta‘lim nashriyoti,, 2021. 344-b. ISBN 978-9943-368-05-7

⁹ MILLIY HARAKATLI O‘YINLAR. Karimjon Rahimqutov kitobidan nash «TAFAKKUR-BO‘STONI* TOSHKENT — 2012 65-66 betlar/

¹⁰ „Milliy o‘yinlar“. <https://www.savol-javob.com/milliy-oyinlar/>. Qaraldi: 4-avgust 2022-yi

R.Yo'ldosheva qayd qilganidek, "O'yinlar xalq tantanalari va tomoshalarining eng yaxshi an'alarini o'zida jamladi, betakror o'ziga xosligi va xususiyatlari bilan milliy madaniyatni nihoyatda boyitdi, avlodlar vorisligining xalq an'alarini o'zida mujassamlashtirdi"¹¹.

Xalq an'analari tadqiqotchisi V. M. Grigoryevning so'zlariga ko'ra, xalq o'yinlarining alohida ahamiyati shundaki, unda bola o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatini namoyish etadi. U ataylab qabul qilingan rol qoidasi talab qiladigan tarzda harakat qiladi. Bundan tashqari, o'yinda o'zini tutish qoidalariga rioya qilgan holda, bola xohlagan narsasidan voz kechishi, o'zini tutishi, xohlaganicha harakat qilmasligi mumkin¹².

A.P.Usova o'yinda bola yashashni o'rganmasligini, balki o'z hayotini yashayotganini, o'z tajribasidan "nima yaxshi va nima yomon" ekanligini tushunishini ta'kidladi. Bolalar uchun o'yinlar pedagogik jihatdan qimmatlidir, ma'lum bir ma'naviy kayfiyatni, xalq ijodiga qiziqishni yaratadi. Taniqli o'qituvchilar maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda xalq o'yinlaridan foydalanishni tavsiya etdilar. Muntazam ravishda o'tkaziladigan va to'g'ri tashkil etilgan o'yinlar xarakterini, irodani shakllantiradi, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalaydi¹³.

"O'yinlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasining asosiy vositasi bo'lishi kerak", -degan edi Ye.A.Arkin¹⁴. Bola o'yin davomida tengqurlari bilan do'stlashadi. Y.A. Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergan edi.

Tadqiqot metodologiyasi.

O'yin – maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyatidir. Rossiyalik pedagogi A.S. Makarenko aytganidek, o'yin bola uchun bilish manba'idir. O'yin jarayonida bolalar egallay bilishlari qiyin bo'lgan bilim va ko'nikmalarni osongina o'zlashtirib oladilar, narsalarning o'ziga xos xususiyatlarini bilib oladilar. Ular tevarakatrofdagi ko'rgan narsalarini o'yinda ifodalash orqali turli harakatlarni bajaradilar, ya'ni yuradilar, yuguradilar, sakraydilar, o'rmaydilar, biron buyumni irg'itadilar. Natijada ularning qaddi-qomati, muskullari va sezgi organlari rivojlanadi, organizmining hayot faoliyati yanada yaxshilanadi. O'yinda bolaning irodasi, o'z harakatlarini o'yin qoidasiga bo'ysundira-olish ko'nikmasi o'sadi, u o'zini qo'pol hatti-harakatlar qilishdan tiyadi, zarur bo'lganda chaqqon harakat qilishga o'rganadi, oqibatda unda jismoniy sifatlar tarkib topadi¹⁵.

"Harakatli o'yin" tushunchasi o'ziga ko'pgina har-xil falklorli o'yin shaklini qamrab olib, shulardan har qaysisi nihoyatda bolalarni har tomonlama rivojlantirishiga jismoniy psixologik va aqliy o'sishiga yordam beradi. Harakatli xalq

¹¹ T.: «Iqtisod-Moliya», 2015. 268 bet. Milliy va harakatli o'yinlar. Darslik. / T.S. Usmanxodjayev

¹² Pedagogika: muammolar va echimlar : III xalqaro materiallar. ilmiy. konf. (Qozon, 2018 yil mart). - Qozon: yosh olim, 2018 yil. - 103-106 betlar. — URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archi>

¹³ Pedagogika: muammolar va echimlar : III xalqaro materiallar. ilmiy. konf. (Qozon, 2018 yil mart). - Qozon: yosh olim, 2018 yil. - 103-106 betlar. - URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/276/13813/>

¹⁴ BOLALAR MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTSIDA O'TKAZILADIGAN HARAKATLI O'YINLAR F.Xo'jayev 13 bet

¹⁵ BOLALAR MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTSIDA O'TKAZILADIGAN HARAKATLI O'YINLAR F.Xo'jayev 13 bet

o'yini falklor o'yinlarning bir turidan iborat bo'lib, asosiy mazmuni ko'proq harakat faoliyatining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan¹⁶. Xalq o'yinlari bolaga barcha sohalarda ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin: masalan jismoniy, intellektual hissiy va kommunikativ. Xalq o'yinlari bolalar salomatligiga foyda keltiradi, yurak qon tomir , nafas olish tizimini yaxshilaydi mushaklarini va suyaklarini mustahkamlaydi¹⁷.

Harakatli o'yinlar inson faoliyatini ta'minlovchi mazmunga egadir. Buni eng qadimgi ajdodlarimiz ham yaxshi bilishgan va kundalik turmushda ular bilan shug'ullanishga amal qilishgan.

1. Arqon tortish. Bu o'yin bolalarda tez harakat qilishni, chaqqonlikni, sabr-toqatlik bilan harakat qilishni tarbiyalaydi. O'yin ko'proq jamoa bo'lib harakat qilish, chidamlilik malakalarini oshirishga yordam beradi.

2. Oq terakmi, ko'k terak. O'yin tez yugurishni, diqqatni, sezgirlikni rivojlantirishga yordam beradi. O'yin bolalarni ahil bo'lib harakat qilishga, tezda to'g'ri yo'nalishni olishga o'rgatadi. O'yinni o'ziga xos harakati tez yugurish va zanjiri uzish.

3. Tapur-tupir qaldirg'och. Katta yosh guruh bolalari uchun. O'yin bolalarda sezgirlik, idrok qilish, eshitish va qabul qilish, chidamkorlik, kuch, tezkorlik, qayishqoqlikni rivojlantirishga yordam beradi. O'yinni o'ziga xos harakati sekin va aniq yurishdir.

4. Echki bolalar. O'rta yosh guruh bolalari uchun. O'yin bolalarda diqqat, sezgirlik malakalarini tarbiyalaydi. O'yin bolalarda chaqqonlik, tezlik, chidamlilik, koordinatsiya harakatlarini rivojlantiradi. O'yinning asosiy harakati yugurish hisoblanadi.

5. Qidirib top kichik yosh guruh bolalari uchun. O'yin bolalarda diqqat-e'tibom, sezgirlik qobiliyatlarini tarbiyalaydi¹⁸.

Milliy xalq o'yinlari maktabgacha yoshdagi bolalarga o'zgacha xushnudlik ulashadi, ularning kayfiyatiga ijobiy ta'sir etadi. U bolalarning jismoniy, aqliy, axloqiy rivojlanishida, kuchli, chaqqon, topqir, farosatli, mard insonlar bo'lib kamol topishida katta ahamiyat kasb etadi.

Milliy-xalq o'yini: "Arqon tortish".

O'yinga tayyorlanish.

Maydonchaning qarama-qarshi tomonlariga o'zaro parallel ikki chiziq o'tkaziladi.

Hamma o'yinchilar kuch jihatidan ikki komandaga bo'linadilar va chiziqlar orqasiga o'tib turadilar. Ikki chiziq oralig'iga maydochaning o'rtasiga sertugun qilib o'ralgan arqon qo'yiladi.

Arqonning qoq o'rtasiga rangli latta bog'lab qo'yilgan bo'ladi.

O'yinning tavsifi.

Signal berilishi bilan ikkala komanda o'yinchilari yugurib kelib, arqon tugunlarini yechadilar va uni o'z tomonlariga tortadilar.

¹⁶ <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/14460-harakatli-o-yinlarni-qisqacha-tarixi-tushinchasi-davrlari-va-pedagogik-ahamiyati>.33 36- bet

¹⁷ Bazhenova OV. Bolalar uchun hissiy-irodaviy rivojlanishni o'rgatish. Sankt-Peterburg: Rech; 2010. p. 192

¹⁸ Milliy va harakatli o'yinlar. Darslik. / T.S. Usmanxodjayev62 bet «IQTISOD-MOLIYA», 2015

Belgilangan vaqt 45 sekund, 1 daqiqa mobaynida arqonning ko'proq qismini o'z chizig'idan o'tkazgan komanda g'olib hisoblanadi.

O'yin qoidalari:

- Faqat signal berilgandan keyingina chiziqdan o'tib, arqon tomonga yugurish mumkin.
- Har bir komanda arqonni talashayotgan vaqtda uning rangli lattagacha bo'lgan bir qismidan, ya'ni arqonning yarmidan ushlashi mumkin.
- Arqon faqat qo'l bilan tortiladi.
- Oyoqni tirash uchun yerni yumshatish, chuqurchalar o'yish, qo'llar bilan yerga tayanish, arqonni oyoqlar orasiga qistirish, yerga o'tirish yoki yotish mumkin emas.

Ushbu qoidalarni buzib, arqonni o'z tomoniga tortib o'tkazgan komandaning yutug'i hisobga olinmaydi.

Pedagogik ahamiyati. Bu o'yin bolalarda tez harakatchanlik, chaqqonlikni, sabr-toqatlik bilan harakat qilishni tarbiyalaydi.

O'yin ko'proq jamoa bo'lib harakat qilish, chidamlilik malakalarini oshirishga yordam beradi.

Milliy - xalq o'yini: "Oq terakmi ko'k terak".

O'yinning tavsifi. O'yinda ishtirokchilar bo'yi, kuchi va chaqqonligiga qarab teng 2 jamoaga bo'linib (har jamoada 10 dan 20 tagacha bola qatnashadi), 15– 20 m oraliqdagi masofada qo'l ushlashib saflanib turadilar.

O'yin qoidalari.

Birinchi jamoa sardori 2-jamoadan birining otini aytib chaqiradi: Oq terakmi, ko'k terak!

Bizdan sizga kim kerak? Sizdan bizga, o'yin ishtirokchilaridan birini ism aytilishi kerak.

Shundan so'ng o'sha chaqirilgan bola yugurib kelib, raqib jamoa a'zolarining qo'l ushlashib turgan yerini ko'kragi bilan uzishga urinadi.

Agar qo'llar ushlangan joyidan uzilib ketsa, raqib tomondagi bolalardan xohlaganini o'z jamoasiga olib ketadi, uzolmasa, o'zi o'sha jamoada qoladi. O'yin shu tariqa navbat bilan davom etadi.

Qaysi jamoada o'yinchilar qolmasa, o'sha jamoa yutqazgan bo'ladi.

Pedagogik ahamiyati. O'yin tez yugurishni, diqqatni, sezgirlikni rivojlantirishga yordam beradi. O'yin bolalarni ahil bo'lib harakat qilishga, tezda to'g'ri yo'nalishni olishga o'rgatadi. O'yinni o'ziga xos harakati tez yugurish va zanjiri uzish

Natijalar va ularning tahlili.

"SWOT" tahlili metodi. Ushbu metod maqsadi quyidagilardan iborat: mavjud bo'lgan nazariy va amaliy bilim, tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash natijasida mazkur muammoni yechimini topishga mo'ljallangan hamda bilimlarni mustahkamlash takrorlash, baholashga mustaqil fikrlashni hamda tafakkurni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, to'rt tamonlama o'rganishni ochib beradi.

Kuzatuvlarimizga ko'ra bolalarda bu ko'nikma yetarlicha shakllanmagan. Odo-axloq masalasida xalq o'yinlarining o'rni katta ekanligini 20 kishi umumiy tarzda fikrlari orqali yoritib berishgan.



1-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq o'yinlarining texnologiyalaridan foydalanishda afazalliklari va kamchiliklari SWOT tahlili metodida.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida SWOT tahlili metodidan o'rta yosh guruhi bolalari uchun xalq o'yinlaridan foydalandik. Loyiha ishini biz tadqiqotimizning keyingi bosqichini SWOT analiz orqali batafsil ochib berishga harakat qildik.

S afzalliklari. O'yin bolalarda diqqat, sezgirlik malakalarini tarbiyaladi. O'yin o'ynashi oraqali bolalar bir jamoa bo'lib o'ynashdi. Bolalarda o'yin chaqqonlik, tezlik, chidamlilik, koordinatsiya harakatlarini rivojlantirdi. O'yin bolalarda o'qishga bo'lgan qiziqishlarini yanada shakllantirdi. O'ziga bo'lgan ishonchini ortdi va jamoada kerakligini angladi.


W kamchiliklari. O'yinning asosiy asosi harakat bo'lganligi uchun bolalarda o'yin texnologiyalaridan foydalanishda xato kamchiliklari bo'lishi. Infratuzilma (texnik resurs) yetishmasligi. Hamma bolalarning o'yinda ishtirok eta olmasligi. Maxsus ehtiyojli bolalar uchun o'quv dasturlari hali ham moslashtirilmaganligi.

O imkoniyatlari. O'yin orqali bolalarda harakatchanlik qobiliyatlari yanada shakllandi. Bilish orqali dunyo qarashi rivojlanishi imkoniyatini berdi. Bola shaxsi jamoaga, muhitga erkin adaptatsiya qilish imkonini berdi.

T- tahdidlar. Bolalarda ularning yoshiga va tabiatiga mos o'yinlardan foydalana olamasligi. Maktabgacha yoshdan boshlab bilimlarni to'liq berilmasligi. Tarbiyachi va jismoniy tarbiya yo'riqchisining hamkorlikda ishlamasligi natijada bolalarda o'yin va ijtimoiylashuvning kechikishi.

Quyidagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar jarayonini tashkil etishda tarbiyachi har bir o'yin turlarini tanlashda bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olishi, mashg'ulot turiga mos ravishda tanlay

bilishi kerak. Aks holda bolalarda dunyo qizishlari o'qishga bo'lgan qiziqishlari ancha pasayishi hamda turli xil muammoli vaziyatlarga dush kelishi mumkin.



2-rasm. Xalq o'yinlari "Tapur-tupur", "Echki bolalari", "Qidirib top", "Oq terakmi ko'k terak" o'yinlari tahlili.

Tadqiqotimiz shuni ko'rsatiki, bolalarda "Echki bolalari" o'yini befarq qoldirmadi. O'yin bolalarda chaqqonlik, tezlik, chidamlilik, koordinatsiya harakatlarini rivojlantiradi. O'yinning asosiy harakati yugurish hisoblanganligi uchun bolalarga juda yoqdi. "Oq terakmi ko'k terak", "Tapur-tupur" o'yinlarini ham bolalar xoxish va istaklaridan chetda qolmadi. Bolalarning qiziqish va istaklarini inobatga olishimiz bu tarbiyachilarning asosiy burchidir.

Xulosa.

Mustaqil yurtimiz kelajagi buyuk bo'lishi eng avvalo farzandalari salomatligiga bog'liq sog'lom yurt qudratli va boy bo'ladi.

O'yin faoliyatida diqqatni, idrokni rivojlantirish, ilgari hosil qilingan tasavvur, tushunchalar, mo'ljal olish singari xususiyatlarni yana ham aniqlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

O'yinlar ijodiy tasavvurni, xotirani, fikrlashni, tafakkur faoliyatini yana ham rivojlantirishga yordam beradi.

Shunday qilib harakatli o'yinlar bolaning aqliy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi.

Xalq o'yinlarida bolaning har tomonlama rivojlanishi, psixologik, bilish jarayonlari, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi.

O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, balki bolaning xulq - atvoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'yin faoliyati tufayli bola nafaqat jismoniy balki ruhiy tomondan ham rivojlanadi.

O'yin tufayli bola baquvvat, sog'lom, bo'lib rivojlansa, o'yin faoliyatini tabiat qo'ynida tashkil etish esa bolaning estetik rivojlanishi, dunyoqarashini kengayishi, tabiatni his qilish, sezish kabilarni hisiyotlari rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'grisida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8-may 2019-yildagi PQ-4312-son qarori <https://lex.uzdocs/-4327235?ONDATE=10.05.2019>
2. Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Yangi O'zbekistonning istedodli yoshlari"; ilmiy ishlar to'plami O'zbekiston Respublikasi |Oliy va o'rta talim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi istedodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash Ulug'bek jamg'armaasi. Tuzuvchi va nashr uchun masullar O Salimov, A Toshqulov, M Bektemirov, Q uronboev, N Xalilov- ta'lim nashriyoti,, 2021. 344-b. ISBN 978-9943-368-05-7
3. Pedagogika: muammolar va yechimlar: III xalqaro materiallar. ilmiy. konf. (Qozon, 2018 yil mart). - Qozon: yosh olim, 2018 yil. - 103-106 betlar. - URL: [https://moluch.ru/conf/ped/archive/276/13813 /](https://moluch.ru/conf/ped/archive/276/13813/)
4. MILLIY HARAKATLI O'YINLAR. Karimjon Rahimqutov kitobidan nash «TAFAKKUR-BO'STONI*TOSHKENT - 2012 yil.
5. Milliy va harakatli o'yinlar. Darslik. T.S. Usmanxodjayev «IQTISOD-MOLIYA», 2015 yil.
6. BOLALAR MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA O'TKAZILADIGAN HARAKATLI O'YINLAR F.Xo'jayev 13 bet
7. Bazhenova OV. Bolalar uchun hissiy-irodaviy rivojlanishni o'rgatish. Sankt-Peterburg: Rech; 2010. p. 192
8. Rasuljonovna, E. Z. (2025). BOLALARDA BADIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSI. Journal of universal science research, 3(6), 49-57.
9. Rasuljonovna, E. Z. (2025). KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA TRIZ (IMEN) USULLARIDAN FOYDALANISH. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 44(1), 128-133.